

INTELEKTUAL MULK HUQUQI OB'EKTLARI, INTELEKTUAL MULK HUQUQI TURLARI VA INTELEKTUAL MULK HUQUQIDAN VUJUDGA KELADIGAN MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLINISHI

Saburova Barchinoy Qahramon qizi

Toshkent viloyati yuridik texnikum o'quvchisi

Annotatsiya: intellektual mulk ob'ektlari, intellektual faoliyat natijalari, fuqarolik muomilasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini akchs ettiruvchi vositalar, mualliflik huquqi, turdosh huquqlar, sanoat mulkiga bo'lgan huquq, sanoat mulkiga bo'lgan huquq, o'simliklarning yangi navlari va hayvonlarning yangi zotlariga bo'lgan huquqlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: intellektual mulk ob'ektlari, intellektual faoliyat natijalari, mualliflik huquqi, turdosh huquqlar.

Intellektual mulk aqliy yoki ijodiy faoliyat mahsuli sanaladi. Misol uchun, adib tomonidan yozilgan asar yoki roman, rassom tomonidan chizilgan surat, olim tomonidan yaratilgan ixtiroga bo'lgan huquq. Oddiy mulkdan farqli o'laroq, intellektual mulk biron bir moddiy ko'rinishga ega bo'lmasligi ham mumkin (masalan, xoreografiya asari yoki pantomima). Intellektual mulk keng qamrovli tushuncha bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

- mualliflik huquqi (fan, adabiyot va san'at asarlari);
- turdosh huquqlar (ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari);
- sanoat mulki (ixtiro, foydali model va sanoat namunalari);
- EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari;
- shaxsiylashtirish vositalari (firma nomlari, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi, tovar kelib chiqqan joy nomi, geografik ko'rsatkichlar);
- seleksiya yutuqlari (o'simliklarning yangi navlari va hayvonlarning yangi zotlari);
- oshkor etilmagan axborot, ishlab chiqarish sirlari (nou-xau);
- integral mikrosxema topologiyalari.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining (keyingi o'rinlarda FK deb yuritiladi) VI bo'limi intellektual mulk huquqi deb nomlangan bo'lib, mazkur bo'limda intellektual mulk yuzasidan vujudga keladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solinadi.

Jumladan, FK 1031-moddasiga ko'ra intellektual mulk ob'ektlari quyidagi 3 turga bo'linadi:

- 1) intellektual faoliyat natijalari;

2) fuqarolik muomilasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini akchs ettiruvchi vositalar;

3) Fuqarolik kodeksida yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomilasi ishtirokchilarining, tovar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar.

Shuningdek, fuqarolik huquqiga ko'ra intellektual mulk huquqi quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) mualliflik huquqi;
- 2) turdosh huquqlar;
- 3) sanoat mulkiga bo'lgan huquq;
- 4) o'simliklarning yangi navlari va hayvonlarning yangi zotlariga bo'lgan huquq;

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi(keyingi o'rinlarda FPK deb yuritiladi)ning 26-moddasiga ko'ra intellektual mulk huquqida vujudga keladigan nizolar fuqarolik sudlariga taalluqlidir.

FPKning 28-moddasiga ko'ra, intielektul mulk huquqi yuzasidan vujudga keladigan nizolarga fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman(shahar sudlariga tegishli hisoblanadi.

Bundan tashqari, qonun hujjatlarida intellektul mulk ob'ektlaridan uchinchi shaxslar tomonidan intellektual mulk ob'ektlaridan mutlaq huquqlar egasi roziligini olmasdan foydalanishning barcha barcha holatlari qo'pol jiddiy huqubuzarlik hisoblanadi va huqubuzarlikning huquqiy oqibatlar va harakterlariga qarab fuqarolik-huquqiy, ma'muriy-huquqiy hamda jinoiy-huquqiy javobgarlikka olib keladi.

Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 149-moddasiga binoan, tafakkur mulki ob'ektiga nisbatan mualliflik huquqini o'zlashtirib olish, hammualliflikka majburlash, shuningdek, tafakkur mulk ob'ektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ular rasman ro'yxatdan o'tkazilgunga yoki e'lon qilingunga qadar muallifning roziligisiz oshkor qilish jinoyat hisoblanadi.

Mazkur jinoyatni sodir etganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi belgilangan

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mualliflar jamoasi "Intellektual mulk huquqi" darslik. Toshkent 2020.
2. O'zbeksiton Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
3. O'zbeksiton Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi.
4. O'zbeksiton Respublikasining Jinoyat kodeksi.